

## I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2018 yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot (YaHM) hajmi 9118,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2017 yil yanvar-iyungacha nisbatan 2,4 foizga o'sdi.


2018 yil yanvar-iyun oylarida YaHM deflyator indeksi 121,2 foizni tashkil qildi.

### Yanvar-iyun oylarida viloyat yalpi hududiy mahsulotining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi


|   | mlrd.so'm     |               | 2017 yil yanvar-iyungacha nisbatan foiz hisobida |
|---|---------------|---------------|--|
|   | 2017 yil      | 2018 yil      |  |
| <b>I. Yalpi hududiy mahsulot, jami</b>            | <b>7433,2</b> | <b>9118,3</b> | <b>102,4</b>                                     |
| <i>shu jumladan:</i>                              |               |               |  |
| Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati            | 7272,7        | 8871,8        | 102,4  |
| Mahsulotlarga sof soliqlar                        | 160,5         | 246,5         | 103,8  |
| <b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b> | <b>7272,7</b> | <b>8871,8</b> | <b>102,4</b>                                     |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi                | 1675,1        | 2201,2        | 100,5  |
| Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)                | 2103,0        | 2519,5        | 102,2  |
| Sanoat  | 1548,1        | 1825,0        | 99,8   |
| Qurilish  | 554,9         | 694,5         | 109,0  |
| Xizmatlar   | 3494,6        | 4151,1        | 103,4  |
| Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar  | 774,6         | 940,6         | 102,0  |
| Tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari   | 838,8         | 919,2         | 107,5  |
| Boshqa xizmatlari                                 | 1881,2        | 2291,3        | 102,1  |

Yanvar-iyun oylarida yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar tarkibi  
(foizda)

2017 yil



2018 yil



- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)
- Xizmatlar

2018 yilning yanvar-iyunida viloyatning yalpi hududiy mahsulotining o'sish sur'atiga ta'siri qurilish 7,8 %, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (10,6 %) va sanoat (qurilishni qo'shgan holda) (28,4 %) tarmoqlaridagi yalpi qo'shilgan qiymat hissasiga to'g'ri kelmoqda.

YaHM ishlab chiqarish umumiy hajmining 67,6 foizi kichik tadbirkorlik (biznes) hissasiga to'g'ri keldi va bu ko'rsatkich 2017 yil yanvar-iyungacha nisbatan 0,4 bandga kamaygan.

2018 yil yanvar-iyunda yalpi hududiy mahsulot hajmida xizmatlar ulushi 46,8 foizni tashkil qildi.